

# Juda boy, go'zal tilimiz bor!

# TONG yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL  
17-OKTABR  
N:42  
(66843)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



Suratlar muallifi: FAZLIDDIN va ZUBAYDA

## DUSHANBADAN

### VAZIR HUZURIDA SUHBAT

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligida Respublika bolalar nashrlari Bosh muharrirlari ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Temir Shirinov bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan izchil ishlohtlar, yosh avlod tarbiyasi, xususan, Respublika bolalar nashrlari - «Tong yulduzi», «Klass» gazetalarini, «Gulxan», «G'uncha» jurnallarining mazmunderligini oshirish xususida so'z yuritdi. O'z navbatida, Respublika bolalar nashrlarining Bosh muharrirlari - A. Jo'rayev, T. Hayitov, D. Shomalikova, A. Suxanovichlar bu boradagi fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Suhbatda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Bosh direktori o'rinbosari R. Safoyev hamda vazirlik Matbuot xizmati kotibi J. Musayevlar ishtirok etishdi.

### YANGI ISTE'DODLAR

Kuni kecha Xorazmda «Yangi avlod - 2011» festivalining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Unda 450 nafar o'g'il-qiz o'z iqtidorlarini namoyish etishdi. Saralash bosqichidan o'tgan, eng iste'dodli deb topilgan 16 nafar ishtirokchi va 4 ta bolalar jamoasi respublika bosqichiga yo'llanma olishdi.

Ularga omad yor bo'lsin!

### BOLALAR MAYDONCHASI BARPO ETILDI

Farg'ona shahridagi «Do'stlik» mahallasi kichikintoylari endi bo'sh vaqtlarini ular uchun barpo etilgan «Bolalar maydonchasi»da o'tkazadigan bo'lishdi. Mahalla hududida ikkita bolalar maydonchasi yangidan qurilib, ishga tushirildi.

## DUSHANBAGACHA

# ONA VA BOLA SALOMATLIGI – OILA MUSTAHKAMLIGI



**O'QUVCHI YON DAFTARIGA**

Insonga til berilmaganda, bir-birini tushunarmidi? Albatta, yo'q, deysiz. Bori ham shu. Til nafaqat muloqot vositasi, balki u haqiqiy mo'jiza, atigi bir so'z bilan kishini eng katta baxtiga yetkazish mumkin.

Ona tilimiz dunyodagi eng go'zal, boy tillardan biri hisoblanadi. Bu tilda eng buyuk kashfiyotlar qilingan, eng buyuk asarlar yaratilgan. Quyida havola etilayotgan ko'chirmalar sizga, albatta, asqotadi deb o'ylaymiz.

## TARIX ZARVARAQLARIDAN

Aql ko'rki so'zdir va til ko'rki so'z, Kishi ko'rki yuzdir, bu yuz ko'rki ko'z.  
«Qutadg'u bilig» dostonidan  
\* \* \*



Shoh-u xil'atekim men tomosha qilg'ali,  
O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.  
Alisher NAVOIY

Husayn Boyqaro buyuk shoir, so'z mulking sultoni Alisher Navoiyni ulug'lab, shunday degan:



Erur so'z mulking qahramoni,  
Erur gar chin desang – Sohbiqironi.

## OFARINLAR BO'LSIN!



Abdurahmon Jomiy o'z paytida Alisher Navoiy bobongizning bebaho «Xamsa» asarini boshqa «Xamsa»lardan ustun qo'yib, «Sening qalaming shunday kalit qudratiga egaki, bu kalit bilan ochilmaydigan qulf yo'qdir», deydi va «Bu qalamga falakdan ofarinlar yog'ilsin», deya tilak bildiradi. Bundan ko'rinadiki, Abdurahmon Jomiy «Xamsa» asarini asl nusxada mutolaa qilib, unga juda yuksak baho bergan.

## ABDULLA AVLONIY SO'ZI

Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur.

## ABDULLA QAHHOR SO'ZI

Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u, holat yo'q.

SHAHNOZA tayyorladi



Yaqinda poytaxtimizdagi muhtasham «Shodlik Palace» mehmonxonasining anjumanlar zalida «Onalik va bolalikni muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda OAV roli va vazifalari» mavzuda seminar-trening bo'lib o'tdi. O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan tashkil qilingan mazkur seminar-treningda respublikamizdagi markaziy hamda hududiy bosma nashrlar jurnalistlari ishtirok etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hamda mamlakatimizdagi qator ilmiy-tadqiqot markazlari ekspert va olimlari tomonidan olib borilgan seminar mashg'ulotlari juda qiziqarli, bahs va munozaraga boy tarzda o'tdi.

Bugungi tezkor zamonamiz biz jurnalistlardan ham tezkorlikni, hozirjavoblikni talab etadi. Jumladan, onalik va bolalikni muhofazalash masalalarini OAV orqali keng va tahliliy tarzda jamoatchilikka yetkazib berish jurnalistdan katta mahorat va bilim talab qiladi. Seminarda ularga mutaxassislar tomonidan mana shu yo'nalishda amaliy maslahatlar, takliflar ham berib o'tildi.

Bunday seminar-treninglar professional bilim va ko'nikmalarimizni oshirish bilan bir qatorda, respublikamiz bosma ommaviy axborot vositalarida onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning yanada teran va chuqur yoritilishiga xizmat qiladi.

Feruz JALILOVA



# MANA SIZGA SHE'R!..

Yo'lingizga shitirlab yog'ilayotgan xazonlami ko'rib, unsiz o'yga tolasiz. Go'yo kuz daftarining sarg'aygan varaqlarini varaqlayotgandek. Balki u chindan ham daraxtlarning hosilini sarhisob qilayotgandir...

*Taqdirimga sovchi kuz, boshimga yog'dirgay xazon, Chirpirab yo'linda uchgan bir xazonidan o'tmadim...*

Qalam qitirlyapti. Qalbingizni ostin-ustun qilib she'r dunyoga keladi. Siz bahorni kuzga ulab, nimalarga erishib, nimalarga erishmay qolganingiz haqida o'ylaysiz, o'ylayverasiz. Kuz insonni ko'proq fikr-mushohada qilishga undaydigan fasl. Har bir uzilgan yaproq qalbingizning tub-tubidan nimalarnidir yulib ketayotgandek bo'ladi. Hali ko'p ishlarni bajarishga ulgurolmay yurganingizni eslaysiz. Donishmandlarimiz kuzni ijod mavsumi deyishadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, tahririyatimizga ayni kuz pallasida juda ko'plab maktublar keladi va aksariyati she'r bo'ladi.

Xatlar bo'limining chaqqon xodimalari Zubayda bilan Zuhraning qo'li qo'lga tegmaydi. «Mana sizga she'r!» deyishadi bir dasta xatni qo'limga tutqazib. O'lis yo'llarni bosib kelayotgan dilnomalardan yurtimizning turli go'shalarida yashovchi o'quvchilarimizning histuyg'ulariga yo'g'rilgan ijod namunalari o'rin olgan bo'ladi. O'quvchilarning beg'ubor bu intilishlaridan ular qalbida she'riyatga bo'lgan zavq-u shavq oshib borayotganini his etamiz. So'zlarimiz quruq bo'lmashligi uchun maktublarni

Siz bilan baham ko'rishga chog'landik. Jizzax Davlat pedagogika instituti qoshidagi 2-sonli akademik litsey o'quvchisi Shahlo Hoshimovanning «Tun qo'ynida» she'rida tunning betakror go'zal manzarasi aks etgan:

*Tun qo'ynida uxlaydi,  
Yo'l bo'yidagi toshlar.  
Sekin allalagandek,  
Anhor qo'shig'in boshlar.*

*Chirildoqlar chirillab,  
Chayqaladi qamishzor.  
Palaponin qo'riqlar,  
Inida onaizor...*

Shahloning yetti bo'g'inli qisqa satrlarini o'qib, ko'z oldimizda tunning serjilo surati gavdalanadi. Xuddi chirildoqlarning chirillashi, qamishzorlarning chayqalishi, anhorlarning alla aytayotgani-yu palaponini qo'riqlab turgan qushning holatini aniq ko'rgandek bo'lamiz. Mana buni she'r desa bo'ladi. Xuddi shunday satrlarni Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 23-maktabning 8-sinf o'quvchisi Abdulla Rabbimovning «Baliqlar» she'rida ham kuzatamiz.

*Dengizlarda beorom,  
Suzar katta qayiqalar.  
Ularning zo'r oviga  
Aylanadi baliqlar...*



«Gullar shahri» deya nom olgan Namanganda tirishqoq va izlanuvchan yoshlar ko'p. Viloyatdagi «Yoshlar markazi»da tashkil etilgan to'garaklarga muntazam ravishda qatnab, bilim, kasb-hunar sirlarini o'rganayotgan bu yoshlarning kelgusidagi rejaları haqida suhbatlashdik:

Iroda KARIMOVA, xorijiy tillar to'garagi rahbari:

– Men rahbarlik qilayotgan ingliz tili to'garagi 196 nafar o'quvchi qatnashadi. Bugungi kun yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan

## GULLAR SHAHRINING YOSHLARI

ishtiyoblari juda baland. Ularning ona tilimizni ham puxta bilishlarini istayman.

**Go'zal MADAMINOVA, Namangan san'at kollejining xoreografiya yo'nalishi 1-bosqich o'quvchisi:**

– Men «Yangi avlod – 2009» Respublika ko'rik-tanlovida qatnashib, g'olib bo'ldim. Viloyatimizda o'tkazilayotgan tadbirlarda ustozim Dildora Nurmatova bilan sahnalashtirgan raqslarimni ijro etib, barchaning ko'nglini xushnud etayotganimdan xursandman.

**Oydina RAHIMOVA, Namangan viloyati, Karmana shahridagi huquqshunoslik kolleji o'quvchisi:**

– Til o'rganish bilan birga, sportning karate turi bilan muntazam shug'ullanaman. Musobaqalarda g'olib bo'lishga harakat qilaman.

**Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi**



Murg'ak qalbida Ona tabiatga, jonzotlarga nisbatan rahm-shavqat uyg'ongan bolakayning hayratlanishidan uning befarq emasligini anglaymiz. Ijodkorlarimizdan mana shunga o'xshash ohori to'kilmagan satrlarni kutgan bo'ldik.

Ikkinchi bir guruh ijodkorlarimiz borki, ularning tanlagan mavzulari takror-takror qalamga olingan bo'lishiga qaramay, o'quvchiga qandaydir yangi fikr aytishga harakat qilishadi. Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 97-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Munisaxon Rahmonovanning «Bog'imning

gulzori» nomli mashqi ana shunday she'rlar sirasiga kiradi:

*Siz meni quyoshimsiz, deya suyasiz,  
Yonimda sirdoshim, deya suyasiz,  
Hamisha dildoshim, deya suyasiz,  
Aziz mehribonim, Onajon!*

*Uyinning bozori, deya suyasiz,  
Ko'nglimning bahori, deya suyasiz,  
Bog'imning gulzori, deya suyasiz,  
Mudom qadrdonim, Onajon...*

Munisaxonning she'rida Ona siymosi go'yo bir munisa bog'bon sifatida gavalanadi. Xuddi shunday holatni Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Dilshoda Tursunovanning «Onam», «Polizda», «Xayr, maktab!», «Do'stlik», Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-maktab o'quvchisi Sarvinoz Mansurovanning «Bolalik – beg'uborlik», «Bizning qishloq», Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi 46-umumta'lim maktabi o'quvchisi Maxinur Normetovanning «Muqaddas Vatan», «Tabiat hodisalari» kabi she'rlarida uchratamiz.

Uchinchi toifadagi ijodkor o'quvchilarimiz she'riyat olamiga endi qadam qo'yayotgan bo'lsalar-da, xayollariga kelgan so'zlarni qog'ozga tushirib, tezroq gazetada chop etishga oshiqadilar. Jizzax



Men sardorman

## BOG'LARI BOR ANJIR, ANORLI



Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun a'lochi, odobli o'quvchilarni hamma yaxshi ko'radi? Chunki bunday o'g'il-qizlar ota-onasi va ustozlarining faxri hisoblanadi-da! Faxrli bo'lish esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Hukumatimiz tomonidan yoshlarning kamoloti uchun qilinayotgan g'amxo'rliklardan, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli

foydalanayotgan o'quvchilargina atrofda gilarining olqishiga, mehriga sazovor bo'lmoqdalar.

Ana shunday tengdoshlaringizdan biri Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 22-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi Sadoqat Zaripovadir.

U maktabning bilimdon va harakatchan o'quvchilaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham ustozlari unga ishonib, ortidan tengdoshlarini ham ergashtira olsin, deb sinf va maktabning «Kamalak» bolalar tashkiloti sardori etib saylashgan. Ayni damda Sadoqat o'z vazifasiga sadoqat bilan yondashmoqda. Shu bilan birga, asosiy vaqtini ko'p dars tayyorlashga, badiiy adabiyotlar o'qishga, o'zi mustaqil ijod qilishga sarflamoqda.

O'tgan yili uning «Tong» nomli she'riy kitobchasi bosmadan chiqdi. Undan «Vatan», «O'zbekiston», «Mustaqillik» kabi she'rlari o'rin olgan. Ayniqsa, «Xorazm» she'rida u o'z yurtini shunday ta'riflaydi:

*Bog'lari bor anjir, anorli,  
Shaharlari gumbaz minorli.  
Ko'chalari tekis va ravon,  
Binolari baland, viqorli.*

O'qishda va jamoatchilik ishlarida yetakchilik qilayotgan Sadoqatga havas qiling, undan ibrat oling.

OLMOS

viloyati, Forish tumanidagi 1-maktabning 9-sinf o'quvchisi Dilorom Qo'ziyevaning «O'zbekiston qizlari» she'ri»ni o'qiganda, ana shunday xulosaga keldik.

Keling, yaxshisi, uning ijodiga o'zingiz baho bering:

*Atlas ko'ylak ustida yal-yal tovlanar,  
Qora sochlar misli taqimini o'par.  
O'zbeginning iboli, go'zal qizlari,  
Hunaridan butun olam hayron qoladi.  
Tayyorlagan taomlari shifo bo'ladi,  
Ko'rganlarning dillarida havas unadi,  
O'zbeginning qizlariga qoyilmiz deydi...*

Dilorom agar mana shuni «she'r» desa, biz unga nima ham der edik?! Izlanishdan charchamang, omad sizga yor bo'lsin, deymiz, xolos. Shu kabi kamchiliklarni Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Dilshodaxon Mamadaliyevaning «Shaharcham», «Vatan uchun», «Ochko'z bo'ri» she'rlarida, Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sevara Jamolovanning «O'zbek ayoli» nomli «she'rlari» misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor xuddi bolari kabi izlanuvchan bo'lishi kerak. Toki u borliqdan behisob rang yig'ib, uni nazm shaydolari diliga jo aylashga erishsa, uning yozganlari kuzda daraxtlar shoxini tark etayotgan xazonlar kabi besamar ketmaydi. Biz ijod yo'lini tanlagan o'g'il-qizlarimizga, izlanishdan charchamang, mehnatlaringiz bir kun o'z samarasini berishiga ishonamiz, degimiz keldi.

AXTAMQULI

GO‘ZALLIGING  
TAN OLAR  
DUNYO



Ildizlari moziyga tutash,  
Azim chinor deynmi, tilim?!  
Siyratida ming bir ma'no bor,  
Baland minor deynmi, tilim?!

Navoiydan qolgan merosim,  
Bobur Mirzo ardoqlagan til.  
Shundan senga baland ixlosim,  
Shundan senga talpinadi dil.

Yashnagaysan, ertang munavvar,  
Istiqlolim yo'lingga ziyo.  
Aminmanki, kun kelib albat,  
Go'zalliging tan olar dunyo.

Donoxon BAXTIYOROVA,  
poytaxtdagi 260-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

# TILIMIZ – O‘ZLLIGIMIZ

Til – xalqning qalbi, uning nomusidir. U ona singari ulug' va mo'tabar. Xususan, o'zbek tili haqida gap ketganda, beixtiyor Navoiy bobomizni yodga olamiz. Zero, Hazrat Navoiy tilimizning keng imkoniyatlari, boyligi-yu nafisligi, betakrorligi-yu jozibadorligini namoyish etib, bu tilda o'ttizdan ziyod she'riy, nasriy asarlar yaratdi, uni dunyo miqyosiga olib chiqdi va turkiy tilda ijod qilgani bilan benihoya faxrlandi.

Hazrat Navoiyning bu boradagi beqiyos xizmatlarini e'tirof etib, Yurtboshimiz «Yuksak madaniyat – yengilmas kuch» asarida «Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan», deb yozgan edilar.

Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatni ham o'z tiliga bo'lgan muhabbatsiz tasavvur etish mumkin emas.

Ushbu go'sh sahifamizni ona tilimiz mavzusidagi maktublardan saraladik.

Ona tilim – oltin beshigim. Ona tilimizni onadek muqaddas bilamiz. Chunki til millat qalbining tarjimonidir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z davrida o'zbek tilining barcha go'zalliklarini ko'rsatib, ijod qildi. U o'z tilini maqtab, o'zga xalqlar tillarini kamsitgan emas. Balki o'zbek tilini ham boshqa tillar darajasiga ko'tarish uchun o'zbek tilida eng nozik tuyg'ularni to'la ifoda qilish mumkin ekanligini isbot qildi.

## OLTIN BESHIGIM

Ona tilimizga Davlat tili maqomining berilishi xalqimiz hayotida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Lekin bunga osonlikcha erishmadik. Ayrim kishilar so'zlashuv chog'ida boshqa tillardagi so'zlardan noto'g'ri foydalanadilarki, bu madaniyatilik emas, aksincha, madaniyatsizlik belgisidir. Ayrim tengdoshlarimiz og'zaki nutqda ruscha-o'zbekcha so'zlarni ishlatib, har ikki tilga nisbatan hurmatsizlik qiladilar.

Ona tili shu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi. Toki til mavjud ekan, xalqning umri boqiydir. Zero, har bir tarbiyali inson ona tilini sevishi va uning pokligi uchun g'amxo'rlik qilishi shart.

Kumushoy ABDURAZZOQOVA,  
Toshkent viloyati,  
Bekobod tumanidagi «Agroservis va iqtisodiyot»  
kasb-hunar kolleji talabasi



## ONAM AYTGAN ALLA BU

Ona tilim – onam aytgan alla bu,  
Nolishida achchiq taqdir ham shirin.  
Momolardan meros qaytgan yalla bu,  
Har satrida armonlari yashirin.  
Ona tilim – javohirlar jamlagan,  
Navoiyning bir «Xamsa»i xirmoni.  
Yo Qodiriy ko'zlarini namlagan,  
Asrlarga tatigulik armoni.  
Ona tilim – sahrolarda Shiroqday,  
Cho'lponlari tashlab ketgan asotir.  
Qaro uyda miltillagan chiroqday,  
Cho'lponlari makon etgan fazodir.  
Axir vafo topmish sendan Shoh Mashrab,  
Furqat firoy cheksa, yupanch o'zingsan.  
Bobolar ko'ksida iymondek asrab,  
Ulusga uzatgan dur, ganj o'zingsan.  
Ona sevgisi-yu Vatan tuyg'usin,  
Sen-la tangri nomin zikr etaman.  
Faqat madh aylagin yurtim quvonchin,  
Tilim, borligingga shukr etaman.

Nasiba AHMADJONOVA,  
Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri



## BEBAHO KAZINAMIZ

Ona tili darsida ustozingizdan o'zbek tilining turkiy tillar oilasiga mansubligini ko'p bora eshitgansiz. Bu tilda yozilgan bebaho asarlarni o'qib, o'z ona tilini go'zal so'zlar bilan tarannum etmagan shoir-u yozuvchi bo'lmas kerak, degan fikr xayolingizdan o'tgan bo'lsa, ajabmas. Bularning bari tilga bo'lgan hurmat belgisi ekanligini yurakdan his qilgansiz.

Mustaqillik yillarida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning yigirma jildlik mukammal asarlar to'plami kitobxonlarga munosib tuhfa bo'la oldi. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyotida besh jildlik «O'zbek

tilining izohli lug'ati» nashr etilishi esa bu borada bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ishlarning eng muhim samarasi bo'ldi.

Har biringiz til – bebaho boyligimiz, ma'naviy imkonimiz, o'zligimiz ekanligini juda yaxshi bilasiz. Shuning uchun ham ona tilimizni xalqimiz tarixi, madaniy merosi, turmush tarzi, ruhiyati, urf-odat va an'alarini o'zida mujassamlashtirgan xazina deya olamiz. Shunday ekan, biz o'z tilimizni boyitishimiz, uni turli tahdidlardan asrashimiz lozim.

Guliyuz BAHODIR qizi

## MENING FAXRIM

Ona tili – ilk bor onamiz allasi orqali qulog'imizga kirgan. Keyinchalik esa ustozimizdan tilimiz haqida ko'plab ma'lumotlar oldik. Har bir xalqning o'z ona tili bo'lganidek, bizning ham o'z ona tilimiz bor. Ajdodlarimiz Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabi bir qator adiblarimiz o'z asarlarida o'zbek tilini shunday jiloladilarki, ular yozgan kitoblarni o'qib, yana bir bor tilimizning naqadar go'zal ekanligini his qilamiz va u bilan faxrlanamiz!

Otabek KOMILOV

Aziz bolajonlar, yer yuzida turli millatlar, ularning o'z ona tillari, buyuk ajdodlarining boy madaniy, ma'naviy merosi borligini yaxshi bilasiz-a? Shuningdek, til – millatning ruhi, jamiyatning ma'naviy va bebaho boyligi ekanligi ham siz uchun yangilik emas. O'zbek tilimiz ham dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri ekanligi qalbimizda faxr tuyg'usini uyg'otadi.

## DIL KALITI

G'allaorol tumanidagi 91-umumta'lim maktabida bo'lganimizda, «Til – dil kaliti» mavzuidagi bayram ertaligining ustidan chiqdik.

Tadbir taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyevning «Ona tilim» nomli she'ri bilan ochildi. So'ngra, o'quvchilar ona tilimiz sha'nini, qadriyatini ulug'lovchi she'rlarni yoddan aytishdi, qo'shiqlar kuylashdi, ma'ruzalar tinglashdi. «Alla» qo'shig'ini eng yaxshi ijro etgan Nasiba Mardiqulova, Orasta Xolboyeva va Mahliyo O'ktamovalar rag'batlantirildi. Sahna ko'rinishi, turli surat va ko'rgazmalar orqali ona tilimizni sevishi va ardoqlash lozimligi haqida hikmatli fikrlar bayon qilindi.

Sirojiddin Mustafoyev, Sardor Nurjovov, Orasta Xolboyeva kabi o'quvchilar yer yuzida qancha millat, elat va qabila bo'lsa, shuncha til borligi, tilsiz xalq yo'q, xalqsiz til ham bo'lmasligini misollar asosida ta'kidlashdi. Oliy toifali pedagog Risolat Ravshanova ertalikni yakunlar ekan, har bir so'zni aql bilan o'ylab, o'miga qo'yib, o'rinsoz so'zni aytmasdan, ochiq chehra va xushmuomalalik bilan so'zlash lozimligini ta'kidladi. Maktab qoshida tashkil etilgan «G'uncha» badiiy dastasi a'zolari kuy va qo'shiqlari bilan davraga yanada fayz kiritishdi.

Shuningdek, til bayramlari, kecha va ertaliklar Zarbdor tumanidagi 8-umumta'lim maktabi hamda «Dilnoza» nomli 13-maktabgacha tarbiya muassasalarida ham qiziqarli va taassurotlarga boy tarzda o'tdi. Bundan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarni ona Vatanini, ona tilini sevishga o'rgatish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishdan iboratdir.

Abdulla SAIDOV, Jizzax viloyati



Dunyoda 6 milliarddan ortiq aholi, minglab elat, uch mingdan ziyod millat bor. Ular orasida tirik va o'lik tillar mavjud. Bejizga men raqamlarni keltirmadim. Shuncha millat va elatlar orasida o'zbek degan sharaflini nomga ega bo'lgan bir millat bor.

Uning betakror tili – o'zbek tili bor. Bu eng il, latif, jozibador tillardan biridir. bir ma'nodagi shakldosh so'zlarning 'pligiga ona tili fanini o'qiyotganimda akror amin bo'laman.

ek romanchiligiga ilk tamal toshini, asarlarini yoddan bilgan ibiyotimiz darg'asi Abdulla Qodiriy o'z sarlarida tilimizning nafisligini ko'rsatib bera olgan. Uning 58 tilga tarjima qilingan, yetti yoshdan yetmish yoshgacha barcha yurtdoshlarimiz qayta-qayta, sevib o'qiydigan «O'tkan kunlar» romani bunga yorqin misol bo'la oladi. Kumushning Otabekka ming bir andisha bilan aytgan «Siz o'shami?» degan so'zlari boshqa tillarga o'girilganda, aynan shunday ma'noni bermagan ekan. Qancha urinishmasin, foydasi bo'lmagan. Siz bu so'zlarni o'zingiz bilgan yoki o'rganayotgan chet tiliga tarjima qilib ko'ring, bu fikrning to'g'riligiga amin bo'lasiz.

«Qadimgi Gretsiya Yevropa sivilizatsiyasi o'chog'i» sifatida qanday o'rin tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi Osiyoda butun turkiy o'lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida shunday o'rin egallaydi», deya ta'rif bergan edi tilimizga taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatov.

Maqolamning xotimasini quyidagi dil so'zlarim bilan yakunlamoqchiman:

Oh tilim, ona tilim, ona allasini kuylagan tilim,  
Tengsizsan, bebahosan, asaldan shirin, boldan totlisan.  
Vatanimga mehrimni senda ifodalayman,  
Onamning madhini senda kuylayman.

Mahfuza JALOLDINOVA,  
Andijon Davlat universiteti  
qoshidagi 5-akademik litsey talabasi



## ERTAKLAR OLAMI

«sehrli olami» mavzusidagi rasmlar tanlovida o'quvchilar o'zlarini o'qigan ertaklari asosida shunday rasmlar chizishdiki, mahoratlari ko'pchilik havas qildi. Bilamizki, ertaklar bolalarda insoniy fazilatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali yaxshidan yomonni, adolat bilan razolatni, yolg'on-u haqiqatni farqlay olishga o'rganadilar. Barcha ertaklar nihoyasi, albatta, ezgulik bilan tugaydi. Rasmlar tanlovida 5-«A» sinf o'quvchisi Azizbek Shaokatov «Susambil» ertagiga chizgan rasmi uchun 1-o'ringa, Nigora Mansurova «Oyul bilan Baxtiyor» ertagiga chizgan rasmi uchun 2-o'ringa loyiq topildilar.

Muzaffar AHMEDOV

## UCHQUR TULPOR


Islom bobom taklifi bilan,  
Uchqur tulpor manzilga chiqdi.  
Uzoq yo'lni bir odim qilib,  
Poytaxt sari shamolday uchdi.

«Talgo», uchgin manzilni ko'zlab,  
Senga boqar chaqmoq ko'z minglab.  
Hur o'zbekni bag'ringga olgin,  
Manziliga yetkazgin asrab.

Otlanasan qirlar ham karaxt,  
Yo'llaringga ilhaqdir ko'zlar.  
Tarixingdan yoshlarga albat,  
«Afrosiyob» degan nom so'zlar.

Dong'ing ketdi, «Talgo» poyezdim,  
Yurtim sha'nin oqlagin mudom.  
Yillar o'tsin, ertangi kunga,  
Barchamizdan qolsin yaxshi nom.

**Farangiz XOLBO'TAYEVA,**  
Samarqand viloyati, Paxtachi  
tumanidagi 21-maktabning  
8-sinf o'quvchisi



## FAYZ

Fayz so'zin ma'nosin,  
Bilolmay bo'ldim garang.  
Buvijonimdan so'rab,  
Bilib oldim-ku, arang.

Fayz degani to'kinlik,  
Tinchlik, bag'ri butunlik,  
Javobin bilib qaytdim,  
Buvimga rahmat aytdim.

**Nigora PO'LATOVA,**  
poytaxtdagi 244-maktabning  
6-«G» sinf o'quvchisi

## SOG'INCH OLIB QAYT!

Keldingmi ey, kuz,  
Qarzingni tez uz!  
Nechun bunchalar,  
Sarg'ayibdi yuz.

Jajji qaldirg'och,  
Ayoq kelmay qoch!  
Bahorda qaytib,  
Yana bag'ring och.

Olis yurtlarda,  
Yolg'ondir balkim.  
Sog'inch tuyg'usi,  
Ko'p deb eshitdim.

Bor bo'lsa agar,  
To'g'risini ayt.  
Ko'ksing to'ldirib,  
Sog'inch olib qayt.

**Mahmud RAJAB,**  
Xorazm viloyati, Gurlan  
tumani



## KUZ

Yurtimga mehmon bo'lib,  
Keldi oltin kuz.  
Bog'da mevalar go'yo,  
Deydi: «Meni uz!»

Bog'imizga bir keling,  
Totli bol yeysiz.  
Bog'bonga beixtiyor:  
«Tasanno!» deysiz.

Go'yo oltin misoli,  
Tovlanar borliq.  
Saxiy kuz bor ne'matin,  
Qiladi tortiq.

**Ozoda BAXSHULLAYEVA,**  
Toshkent shahri, Hamza  
tumanidagi 149-maktabning  
7-sinf o'quvchisi

**Qimmatli bolalar! Gazetamizning o'tgan yilgi sonlarida mashhur shved yozuvchisi Astrid LINDGRENning «Tomda yashaydigan Karlson» qissasini o'qigan edingiz. Sizlarni ana shu yozuvchi qalamiga mansub yana bir qiziqarli qissa bilan tanishtirmoqchimiz. U «Peppi uzunpaypoq» deb ataladi.**

**Qissani yozuvchi bobongiz Sa'dulla SIYOYEV biroz qisqartirib tarjima qilgan.**

**Yangi qissa ham Sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.**

## PEPPI UZUNPAYPOQ

**Astrid LINDGREN (shved yozuvchisi)**

## 1. Yangi do'stlar

Shvetsiyadagi kichkina bir shaharchaning chekkarog'ida qarovsiz yotgan bog' bor. Ana shu bog'ning o'rtasida to'kilay deb turgan bir uycha ham bor. Bu uychada bir qizcha yashaydi. Uning ismi Peppi uzunpaypoq. Dala hovlida Peppining bir o'zi turadi. Nega, deysizmi? Chunki uning oyisi ko'p yillar avval olamdan o'tgan, dadasi esa dengizchi ekan. Katta kemalarni haydab, yurtma-yurt suzib ketarkan. Ilgari Peppi dadasi bilan birga sayohatga borib turardi. Keyin zerikdi. Dengizdan ko'ra tug'ilib o'sgan dala hovlisini sog'inadigan bo'ldi. Dadasi bilan xayrlashdi-yu, qadrdon uylariga ko'chib keldi. Otasi unga bir xalta tilla-kumush bilan kichkina maymun bolasini sovg'a qildi. Shunday qilib desangiz, Peppi maymunchasini yetaklab, hovlisiga kelib joylashdi. Qarasa, uy to'zib ketgan, bog'dagi daraxt-

lar ham qurib qolgan, uydagi buyumlarni chang bosgan edi. Peppi bilagini shimarib ishga kirishdi. Uchto'rt kun ichida uyni chinnidek qilib tozaladi, eski-tuski narsalarni chiqarib tashladi. Peppi maymunchasiga Nilson deb nom qo'yan edi. Nilson Peppining orqasidan yurib, unga yordamlashdi. Nima qil desa, shuni qildi. Peppi ham Nilsonni shirinlik bilan siyab turdi.

— Ana, azizim Nilson, — dedi Peppi xursand bo'lib, — dadamiz dam olishga kelganlarida, hovlining chiroyli bo'lganini ko'rib, rosa quvonadi, to'g'rimi, janob Nilson?

Maymun, ha, degandek bosh chayqadi va erkalani Peppiga suykaldi.

— Iye, hozir yeding-ku, yana konfet beraymi? — dedi Peppi va Nilsonga xo'rozqand cho'zdi.

Peppi bor-yo'g'i to'qqiz yoshda, lekin shunaqayam kuchliki, ko'rganlar hayron qoladi. Xohlarsa, otning qorniga yelkasini qo'yib, uni dast

ko'tarishi mumkin. Aytmoqchi, Peppi yaqinda oppoqqina, chiroyli ot sotib olgan. Otga Peppi Parizod deb nom qo'ydi. Uni chiqaverishga bog'lab qo'yadi-yu, kun bo'yi Parizodga tikilib o'tiradi. Otning orqa-boshini silaydi, yam-yashil o'tlardan uzib, oldiga tashlaydi. Parizodning ko'm-ko'k bedani karsillatib chaynashi Peppining zavqini keltiradi.

Peppi yashaydigan uyni yonginasida yana bitta hovli bor edi. U yerda Tommi degan bola bilan uning singlisi turishar edi. Aka-singil juda ahil edi. O'yinchoq talashib, bir-biri bilan urishmas, har doim ota-onasining aytganini qilardi. Top-toza kiyinib yurishar, xullas, yaxshi bolalar edi. Ular goho devorga osilib, Peppining hovlisiga qarashardi.


— Eh, attang, — derdi Tommi, — bu yerga biron qo'shni ko'chib kelmadi.

— Shuni ayt, — deb qo'yadi singlisi. — Qo'shning bolalari bilan mazza qilib o'ynardik, to'g'rimi?

Gap shundaki, Tommi bilan Annika devordan mo'ralab yurgan paytlarida Peppi hali ko'chib kelmagan edi. Keyin aka-singil biror oyga dam olgani

buvilarinikiga ketishdi. Ular qaytib kelishdi-yu, o'ynagani ko'chaga chiqishdi. Shu payt qo'shni hovlining kichkina eshigi ochildi-yu, bir qizcha chiqib keldi. Uni ko'rib, aka-singil qotib qolishdi. Qiz ori, bo'ychangina edi. Sabzi rangidagi kalta sochlarini ikki tomonga turmaklab qo'yibdi. Yuziga sepkil toshgan. Egnida havorang ko'ylak. Eng qizig'i, ko'ylagining har yeriga sariq, qimmi matodan yamoq solingan. Yana ajablanarlisi shuki, bir oyog'ida uzun qora paypoq, bir oyog'ida sariq paypoq. Kattakon qora tuflisi oyog'idan tushib ketay deb turibdi. Notanish qizning yelkasida o'tirgan maymunni ko'rib, Tommi bilan Annika og'izlarini ochib qolishdi. Maymuncha ham yasantusan edi: egnida havorang shim, sariq kamzul, boshida oppoq poxol shlyapa...

(Davomi bor)





## QUVONCHLI XABAR

150 o'ringa mo'ljallangan yangi o'quv binosining qad rostlashi G'ijduvon tumanidagi 10-bolalar musiqa va san'at maktabi jamoasini birdek quvontirdi. Endilikda o'n oltita yo'nalish bo'yicha san'at va musiqa sirlarini o'rganayotgan o'g'il-qizlar shinam va yorug' sinfonalarda tahsil oladilar.

Hozir bu yerda o'quvchilar yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zardo'zlik, xoreografiya, teatr san'ati kabi yo'nalishlarda saboq olishadi.

Maktab o'quvchilari yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, kelgusida yurt taraqqiyoti uchun xizmat qilishlarini izhor etdilar.

Alisher ABDULLAJONOV

## BOLALIKNING ZARHAL KITOBI

Dam olish kuni oilaviy hashar uyushtirdik. O'g'lim bilan anchadan buyon qarovsiz yotgan omborxonani tartibga keltirmoqchi bo'ldik. Peshingacha urinib, keraksiz lash-lushlarni hovliga to'pladik. Ombordan qamchi bilan og'ir teshani topib olganimda, rahmatli bobomning surati ko'z oldimda namoyon bo'ldi. Yana biror narsa chiqib qolarmikin deb, omborning har bir tirqishini sinchiklab qaray boshladim. Shunda shiftning bir burchagidagi yoriqqa tiqib qo'yilgan qalin daftarga ko'zim tushdi. Avaylabgina sug'urib oldim. Ishonasizmi, men bir zumda boyib ketdim: katta xazina topib oldim. Bu daftar meniki edi. Qirq yil avval tutgan kundaligimda har kungi voqealarni qisqacha qilib yozib borgan ekanman. «Bugun yomg'ir yog'di», «Adabiyotdan besh oldim»... Daftardagi yozuvlar asosan mana shunday bolalarcha kuzatuvlardan iborat edi.

To'rtinchi sinfda o'qiyotgan o'g'lim Xurshidga ham kundalik tutishni maslahat berdim. Daftarning kundaligidagi voqealar

rang-barangligi bilan kishining havasini keltiradi. Daftar uning ilk sahifasi mamlakatimiz Istiqlolga erishgan kunni katta harflar bilan yozishdan boshlandi. G'alla mustaqilligiga erishganimiz, avtomobil ishlab chiqaruvchi yigirma sakkiz davlat orasidan munosib o'rin olganimiz, bolalar sportini rivojlantirish borasida belgilangan tadbirlar, ulkan ko'priklar, uzundan-uzun temiryo'llar, Qamchiq dovoni haqida ham alohida iftixor bilan yozilgan. Yaqinda o'g'limning kundaligidan mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda tezyurar poyezd qatnovi yo'lga qo'yilganligi haqidagi xushxabar ham joy oldi. Kundalik tufayli o'g'lim ham ancha o'zgardi. Yurtimiz hayotidagi hech bir

yangilik uni befarq qoldirmaydi. Men uning daftariidagi ayrim qaydlar haqida to'xtaldim, xolos. Xayrli ishlar esa juda ko'p. Hali yanada ko'payadi. Jannatmaqon o'lkamiz tarixi kun sayin boyib bormoqda. Agar siz ham Xurshid kabi kundalik tutsangiz, o'zingiz bilmagan holda katta kitob yozib qo'yasiz.

Yusuf ABDULLAYEV



«Bolalar huquqlari bolalar nigohida» tanloviga

## HUQUQIY BILIMIM OSHDI

Muqaddas kitoblarda «Farzand insonga avaylab-asrash, ilmi, odobli, axloqli, vatanparvar va mehnatkash qilib tarbiyalash uchun beriladi», deyilgan. Nafaqat bolajon xalqimiz oilalarida, balki biz yashab turgan jamiyatda ham bu hayot haqiqatiga chuqur amal qilinadi. Ota-onalarimiz moddiy ehtiyojlarimizni qondirib, mehr bilan parvarishlasalar, davlatimiz, Yurtboshimiz rahnamo-

ligida puxta bilim olishimiz, kasb-hunar sirlarini mukammal egallashimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi, odobli, axloqli, mehnatkash, vatanparvar bo'lib kamol topishimiz uchun qayg'uradi. Shuning barobarida huquqlarimizni ham himoya qiladi.

Gazeta orqali «Bola huquqlari bolalar nigohida» nomli tanlov e'lon qilinganini o'qib, behad quvondim. Unda qatnashish maqsadida, bola huquqlariga oid ko'plab qonunlar bilan



tanishdim, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani o'qib chiqdim. Shu asnodda huquqiy savodxonligim oshdi. Unga ko'ra, biz yashash va sog'lom rivojlanish, ilm olish, dam olish va bo'sh vaqtimizni maroqli o'tkazish, o'z qarashlarimizni, fikrlarimizni erkin ifodalash, qiynoqlarga va boshqa shafqatsizlarcha jazoga duchor etilmaslik kabi huquqlarga ega ekanmiz. Ular orasida biz uchun eng muhimi qaysi ekanligi haqida uzoq o'yладim. Menimcha, ularning barchasi muhim! Emin-erkin o'sib-ulg'ayishimiz, farovonlikka erishishimiz uchun zarur bo'lgan barcha jihatlarni e'tiborga olingan.

Bolalikda o'qigan ertaklarimda qahramonlarning huquqlari poymol qilinishiga guvoh bo'lganman. Ular asosida yangi talqinda bir ertak yozishga harakat qildim.

Ertagim tengdoshlarimga ma'qul bo'ladi, degan umiddaman.

## XASIS BOY

Qadimda bir xasis boy yashagan ekan. O'zining hisobsiz boyliklari bo'la turib, qo'shnilarning mulkiga ham ko'z olaytirar ekan. Unga qo'shni yashaydigan bir beva ayol Nodir ismli o'g'li bilan gilam to'qib, shuning orqasidan kun ko'rarkan. Xasis boy esa gilamlarini bozorga olib borishiga yo'l qo'ymas, o'zi arzon-garovga sotib olaverarkan. Bu ham kamlik qilgandek, Nodirga uyidagi og'ir-og'ir yumushlarni ham bajartirar, evaziga qotgan non, chirigan olmalar berib, ularni tahqirlar ekan...

Boyning bu xatti-harakatlari nafsoniyatiga tekkan Nodir qichitqi o'tdan qo'shib ip yigiribdi-da, undan chiroyli gilam to'qibdi. Ochko'z boy bu gilamni ham tortib olibdi. Darhol uyiga solib, ustiga yastanib yotib olibdi. Azoi badani qichishib, tavbasiga tayangan boy shu-shu qo'sh-nisidan gilam o'l m a y d i g a n bo'libdi.

Aziza AKBAR qizi,  
poytaxtdagi  
249-maktabning  
9-sinf o'quvchisi





SUMMER SPORTS FUN  
Find out the tools of winter games in this picture.

## BAXTIJONNING TAKLIFI

Jizzaxlik Baxtijon Isroilovani gazetamiz muxlislari juda yaxshi tanishadi. Boisi, eng faol muxbirlarimiz bo'lgan bu ijodkor qizimiz o'zining ijodiy izlanishlari bilan ko'pchilikning e'tiborini qozongan. Tinib-tinchimas tengdoshingiz uchun mazkur yilimiz ham omadli keldi. U fan olimpiadalarining viloyat bosqichida ingliz tili bo'yicha ishtirok etib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. «Kelajak ovozi – 2011» mega-tanlovining viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Hozirda Jizzax Davlat pedagogika instituti qoshidagi 2-sonli akademik litseyda tahsil olayotgan Baxtijon «Tarjima nazariyasi va usullari aro bog'liqlik» mavzusida ilmiy tadqiqot ishi ustida izlanmoqda.

Baxtijon yaqinda tahririyatimizga kelib, kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan «Ingliz tilini o'rganamiz» nomli yangi rukn tashkil qilish taklifini bildirdi.

Bu taklif bizga ham juda ma'qul bo'ldi va uning «Ingliz tili darslarini samarali tashkil etish» nomli uslubiy ishlanmasiga kiritilgan rasmlari o'yinlarni e'tiboringizga havola etishni lozim topdik. O'yin shartlari bilan tanishib, javobingizni ingliz tilida yozib yuboring.

Maktubingiz ustiga «Ingliz tilini o'rganamiz» rukniga deb yozing.



Look at the picture and find out the 4 parts of animal body in this funny animal.

Head of an E \_\_\_\_\_  
Body of a B \_\_\_\_\_  
Back Legs of a D \_\_\_\_\_  
Tail of a F \_\_\_\_\_

## BILASIZMI?

Tuyaqushning tuxumi salkam futbol koptogidek keladi. Uning po'sti shu qadar qalinki, hatto ustiga chiqsa, odamni ham bemalol ko'tara oladi.

\*\*\*

Kenguru 90 kilogramm vaznga ega bo'lsa-da, har sakraganda, 9 metr masofani uchib o'tadi.

\*\*\*

Qovog'ari dam olmasdan 320 kilometr masofani bosib o'tishi mumkin.



\*\*\*

Bolalarning eng sevimli jonivorlaridan biri bo'lgan fil bir daqiqada 10 marta nafas olib, chiqaradi. Sichqonlar esa shu muddatda 200 marta nafas olib, chiqaradi.

\*\*\*

Sog'lom odamning me'yoriy harorati Selsiy shkalasi bo'yicha 36 darajada ekanligini bilasiz. Mushukning tana harorati 38 daraja ekan.



## ROBOT NINACHI



Gollandiyalik muhandislar og'irligi uch gramm keladigan ninachi robot yaratdilar. «Delfy Micro» deb nomlangan bu uchuvchi robot qanotlarini 10 santimetr gacha yoza oladi.

Yangi robot operator buyrug'iga binoan, ninachi kabi uchish va mitti kamera yordamida videotasvirni o'tkazish qobiliyatiga ega. Unga 50 m/s tezlikda uchish uchun uch daqiqali batareyka yetadi. «Delfy Micro» nafaqat gorizontol uchishi, balki ma'lum nuqta ustida muallaq turishi va orqa tomoniga ham harakatlanishi mumkin. Bu robot eng yashirin joylarga ham kirib, tadqiqotchilarga u yerda nima borligini ko'rsata oladi.

Gollandiyalik robot yasovchilar endilikda vazni bir grammli va qanoti 5 santimetrli sun'iy ninachi yaratish ustida ish olib bormoqdalar.

DILOROM tayyorladi



Bolakay uch yoshli bo'lishiga qaramay alifboni yaxshi biladi. Bundan g'ururlangan ota-onasi uning yutug'ini do'stlariga maqtanishyapti.

– Sen aqlli bola bo'libsan, – dedi mehmonlardan biri.

– Birinchi harf qaysi?

– A...

– To'g'ri! A dan keyin qaysi harf keladi?

– A...

– Qolgan hammasi, – deb javob berdi Bolakay.

Hilola ERGASHEVA,

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti talabasi

Ochil dasturxon

Aziz singiljonlarim, bilamiz, siz juda pazandasiz. Shirindan-shirin taomlar tayyorlash, dasturxon bezash borasida Sizning oldingizga tushadigani yo'q. Lekin qiz bola qancha ko'p taom tayyorlashni bilasa, shuncha



oz. Shu maqsadda bugun sizlarga oshirma somsani qanday tayyorlash haqida maslahat bermoqchimiz.

## OSHIRMA SOMSA

Bir litr iliq sutga 100 gramm margarin, 1 osh qoshiq pista yog'i, yarim choy qoshiq tuz, ozgina xamirturush, 2 dona tuxum, 1 choy qoshiq shakar, un qo'shib xamir qoring. Biror soat tindirilgach o'qlovdek uzunlikda cho'zib, keyin mayda zuvalachalar kesib oling. Qo'lingizni yog'lab, zuvalachalarni dumaloq shaklda oching. Ichiga qiyma solib, chiroyli qilib tuting. Qiymasiga yarim kilogramm lahm go'sht, 5-6 dona piyoz, ozgina dumba to'g'raladi. Tuz, zira, murch qo'shiladi. Somsa 180-200 darajada gaz pechida pishadi. Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Tong yulduzi

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV  
Navbatchilar:  
Gulyuz ORIFJONOVA

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Svetlana INOMOVA,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 31742  
Buyurtma N: J 2927